

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT FAKULTETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK:338.45

PARDAYEVA MAFTUNA ULUG‘BEK QIZI

**HUDUDDA RAQOBATBARDOSH SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB
CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof.v.b. A.A.Yadgarov

TOSHKENT – 2024


Magistrlik dissertatsiyasi "Yashil" iqtisodiyot kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

9-sonli bayonnoma "13" aprel 2024 y.

Ilmiy rahbar: A.Yadgarov



Talaba: M.Pardayeva



Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2024 yil "17" 05
№ 1/09 raqami bilan ro'yxatga olingan.

"Himoyaga tavsiya etiladi"

"Yashil" iqtisodiyot kafedrasini
mudiri, prof. I.Xotamov

"02" 05 2024 yil

Himoya 2024 yil "20" 05 soat 1400
mas'uliyati cheklangan jamiyatda bo'lib o'tadi. da "Texnopark"

ANNOTATSIYA

Hududlarda raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarini samarali yo'llarini topish hamda hududlarning mavjud salohiyatidan unumli foydalanish choralari ko'rish bugungi kunda iqtisodiyotda dolzarb mavzulardan biridir. Zero, hudud iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning tabiiy, mineral-xom ashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi va mehnat salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish natijasida xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirishi mumkin. Shu boisdan ham, tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan ishlab chiqarish, neft, oziq ovqat, kimyo, metallurgiya, to'qimachilik va boshqa tarmoqlarni statistik ma'lumotlarini tahlil qilindi, mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, adabiyotlari, darsliklari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy xujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik.

Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun viloyatimiz sanoati holati va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar, diagramma va jadvallarasosida hamsa bir nechta tahlil usullari yordamida o'rgandik. Undan tashqari xorijiy davlatlarni bu sahodagi tajribasi ularni ishtiroki bilan ham tanishib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida sanoat sohasida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada samarali yo'lga qo'yish choralari bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan hulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: sanoat, raqobatbardoshlik, o'sish sur'ati, dinamika, samaradorlik, sanoat tarmoqlari, jahon tajribasi, investitsiya.

ABSTRACT

Finding effective ways of producing competitive industrial products in the regions and taking measures to effectively use the existing potential of the regions is one of the current topics in the economy today. After all, as a result of modernization and diversification of the region's economy, as a result of the comprehensive and effective use of its natural, mineral raw materials, industrial, agricultural and labor potential, it is possible to increase the standard of living and income of the people. For this reason, during the research, we conducted detailed work within the scope of the topic. Among other things, we prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local normative documents on the topic.

In order to increase the practical value of the scientific work, we studied the state of the industry of our region and the extent to which the development of industrial sectors is carried out on the basis of statistical data, diagrams and tables, and with the help of several methods of analysis. In addition, we got acquainted with the experience of foreign countries in this field and their participation. Based on the studied and analyzed information, we developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations on measures to more effectively launch the production of competitive products in the industrial sector.

Key words: industry, competitiveness, growth rate, dynamics, efficiency, industrial sectors, world experience, investment.

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	6
Keltirilgan qisqartmalar	7
I BOB. KIRISH	8
1.1. Dessertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	13
1.4. Tadqiqot ob'yekti va predmeti	14
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	14
1.6. Dessertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	15
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	17
2.1. Kirish	17
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	18
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	23
III BOB. METODOLOGIYA	32
3.1. Tadqiqot dizayni	32
3.2. Ma'lumotlar to'plash jarayoni	32
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	33
3.4. Tadqiqot o'tkazish uchun zarur sharoitlar	38
IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALARI	40
4.1. Hududda mavjud sanoat tarmoqlari tarkibi va ularning Respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni	40
4.2. Raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning amaldagi faoliyati hamda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili ... Hududda mavjud ishlab chiqarish imkoniyati va salohiyatidan	45
4.3. samarali foydalanish hamda sanoat korxonlarini rivojlantirish istiqbollari	61
V BOB. XULOSA	71
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha tavsifi	71
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	72
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	77
Foydalanilgan adabiyotlar	80

I BOB. KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotni sanoatning turli tarmoqlarisiz tasavvur qilish qiyin albatta. O‘xshatish bo‘lsada ularni tanadagi qon tomirlariga qiyoslash mumkin. Sanoat respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki, sanoat o‘zining qo‘shimcha qiymat yaratishi, aholiehtiyojini qondirishdagi o‘rni va yuqori darajaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish lokomotivi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlash maqsadida “O‘zbekiston-2030” strategiyasi ishlab chiqildi.

Unga ko‘ra, sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish masalalari ham inobatga olingan, ya‘ni sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionga yaqin yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish belgilangan. Shuningdek, yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ygan korxonalarni faol rag‘batlantirish tizimini joriy qilish va har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish vazifalari belgilangan¹.

Hududlarda sanoat tarmog‘ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur‘atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingan, ekib o‘stirilgan barcha resurslarni qaytaishlash, ulardan yangidan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko‘payishi hisobiga diversifikatsiyalashuvjarayonlari takomillashadi.

¹ “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy/